Talabalarda ekologik ong orqali yoshlar salomatligini saqlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarning klassifikatsiyasi ....560
Tadjibayeva Gavxaroy Ismailovna

Pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning metodik asoslari....564
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li

Quyi Zarafshon tabiatining antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi va landshaftlarining antropogen modifikatsiyalanishi ....568
Samyayev Anvar Kadirovich

# XORIJ VA O'ZBEKISTON ME'YORIY HUJJATLARIDA O'QISH KOMPETENSIYASIGA QO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI



Soliyev Umidjon Yulchivoyevich
Namangan davlat chet tillari instituti,
Turizm va tarjima kafedrasi dotsent v.v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha fasafa doktori, PhD
**ORCID: 0009-0009-7229-3926**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti (DTS), chet tillarni bilishning Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) va IELTS tizimida o'qish kompetensiyasiga qo'yilgan talablar qiyosiy tahlil qilingan. O'qish kompetensiyasining nazariy asoslari, baholash mezonlari va zamonaviy yondashuvlari chuqur o'rganilgan. Xususan, mediatsiya, plurilingualizm, raqamli savodxonlik kabi yangi kompetensiyalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish zarurligi ta'kidlangan. Tadqiqotda milliy va xalqaro tajribalar uyg'unligi asosida metodik takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qish kompetensiyasi, CEFR, IELTS, DTS, mediatsiya, plurilingualizm, baholash mezonlari, raqamli savodxonlik.

**Abstract:** This article provides a comparative analysis of the requirements for reading competence in the State Educational Standard of Uzbekistan (DTS), the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR), and the IELTS system. The theoretical foundations, assessment criteria, and modern approaches to reading competence are explored in depth. Special emphasis is placed on the integration of new competences such as mediation, plurilingualism, and digital literacy into the national education system. The study proposes methodological recommendations based on the harmonization of national and international practices.

**Key words:** reading competence, CEFR, IELTS, DTS, mediation, plurilingualism, assessment criteria, digital literacy.

**Аннотация:** В данной статье представлен сравнительный анализ требований к компетенции чтения в Государственном образовательном стандарте Узбекистана (ГОС), Общеевропейских компетенциях владения иностранным языком (CEFR) и системе IELTS. Подробно рассматриваются теоретические основы, критерии оценки и современные подходы к формированию компетенции чтения. Особое внимание уделяется необходимости интеграции в национальную систему образования таких новых компетенций, как медиация, плюрилингвизм и цифровая грамотность. В исследовании даны методические рекомендации, основанные на гармонизации национального и международного опыта.

**Ключевые слова:** компетенция чтения, CEFR, IELTS, ГОС, медиация, плюрилингвизм, критерии оценки, цифровая грамотность.

## KIRISH

XXI asr ta'lim paradigmasida o'qish kompetensiyasi (reading competence) til o'rganuvchilarning umumiy kommunikativ salohiyatini shakllantirishda asosiy komponentlardan biri sifatida qaralmoqda. Globalizatsiya, akademik mobillik, axborot oqimining keskin ortishi sharoitida o'qish malakasi nafaqat talabalarning til bilimlarini, balki ularning axborotni izlash, tahlil qilish va tanqidiy qayta ishlash qobiliyatlarini ham belgilaydi. UNESCO (2017) ma'lumotlariga ko'ra, o'qish kompetensiyasi zamonaviy jamiyatda shaxsning bilim olish va mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish ko'rsatkichlaridan biridir. O'qish kompetensiyasi zamonaviy tilshunoslik va ta'lim metodikasida ko'p qirrali tushuncha sifatida izohlanadi. Chet tillarni bilishning Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) hujjatida [6] o'qish ma'lumot qabul qilish (reception) faoliyatining asosiy turi sifatida aniqlanadi va bevosita, bilvosita hamda tanqidiy tushunish darajalarini o'z ichiga oladi. IELTS (International English Language Testing System) tizimida esa o'qish malakasi murakkab akademik va ijtimoiy matnlarni tez va aniq tushunish, asosiy g'oya va muhim detallarni aniqlash, muallifning ohangi va nuqtai nazarini anglash qobiliyatlari orqali baholanadi [7].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchilardan M. Uest, I. M. Berman, V. A. Buxbinder, Z. I. Klichnikova, S. K. Folomkina, J. J. Jalolov, N. V. Barishnikova va M. L. Vaysburdlar o‘qishni o‘rgatish bo‘yicha til ta’limshunosligida fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Mazkur tadqiqotlarda ingliz tilida o‘qish nutq faoliyati turini o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari, ingliz tilida o‘qishni o‘rgatishni axborotni o‘zlashtirishdagi o‘rni va ahamiyati kabi metodik masalalar atroflicha o‘rganilgan, ularga doir qimmatli fikrlar bayon etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (s. 8–12) muvofiq, umumta’lim va oliy ta’lim bosqichlarida o‘qish kompetensiyasi talablari bosqichma-bosqich murakkablashadi va Chet tillarni bilishning Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) darajalari bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu jarayonda o‘quvchi va talabalar turli janr va uslublardagi matnlarni tushunish, axborotni izlab topish, xulosalar chiqarish va o‘z nuqtai nazarini asoslash malakalarini rivojlantiradilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘qishga nutq faoliyatining mustaqil turi sifatida yondashuv uning amaliy-kommunikativ vazifasini aniqlashga yordam beradi. Oliy o‘quv yurtlarining nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida Xorijiy til fani bo‘yicha o‘quv soatlarining chegaralanganligi, o‘quv rejasining o‘ziga xosligi, til tabiiy muhitining mavjud emasligi, talabalarning yosh xususiyatlari har qanday ingliz tilidagi matnni o‘qishga imkon bermaydi. Shuning uchun amaliyotda mazkur sohada lozim bo‘lgan maqsad va vazifalarni to‘g‘ri aniqlab olish zarurdir. Bu esa ingliz tilida o‘qish faoliyatining amaliy jihatdan ahamiyatini kuchaytiradi. Tilni amaliy maqsadda egallash ingliz tili o‘rganuvchining kelajakdagi maqsadi, o‘quv yurtining yo‘nalishi va uning amaliy faoliyatda axborot olish qobiliyatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Axborot olish maqsadida o‘qish, avvalo, amaliy maqsad, ikkinchidan, ta’limiy vosita ekanligi nazariya va amaliyotda isbotlangan.

Milliy standartlardagi (DTS) o‘qish kompetensiyasi talablari bilan xalqaro standartlar (IELTS, CEFR) o‘rtasida mazmuniy va metodik farqlar mavjud. Bu farqlarni chuqur tahlil qilish o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, xalqaro imtihonlarga tayyorlov samaradorligini oshirish va milliy baholash tizimini xalqaro mezonlarga yaqinlashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan Davlat ta’lim standartida o‘qish kompetensiyasi uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari uchun asosiy til ko‘nikmalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur Davlat ta’lim standarti (DTS) va o‘quv dasturlari CEFR darajalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, unda o‘qish malakalariga qo‘yilgan talablar aniq ko‘rsatib o‘tiladi [1].

## TAHLIL VA NATIJALAR

DTSga ko‘ra, o‘qish kompetensiyasi – bu talabaning turli janr va uslublardagi yozma matnlarni tushunish, asosiy g‘oya va qo‘shimcha tafsilotlarni ajratish, matn mazmunini qayta ishlash va baholash, hamda undan kommunikativ vaziyatda foydalana olish qobiliyatidir [1]. Uning asosiy jihatlari turli murakkablikdagi matnlarni (ilmiy-ommabop, badiiy, rasmiy-ish uslubidagi) o‘qish va tushunish, muallifning asosiy fikri, maqsadi va pozitsiyasini aniqlash, tushunilgan axborotni qayta ishlash va o‘z fikrini asoslash, o‘qilgan material asosida muloqotga kirishish va yozma ishlarda foydalanishdan iboratdir. DTSda o‘qish ko‘nikmalari bosqichma-bosqich murakkablashib borishi belgilangan:

- boshlang‘ich ta’lim (A1–A2 CEFR darajalari)da qisqa va oddiy matnlarni o‘qish, asosiy ma’lumotni aniqlash, kundalik hayotga oid matnlar bilan ishlash [1];
- umumiy o‘rta ta’lim (B1 CEFR darajasi)da murakkabroq matnlarni, jumladan, mavzuga oid maqolalarni o‘qish, tushunilgan ma’lumotni umumlashtirish, matn ichida kerakli axborotni topish;
- o‘rta maxsus va oliy ta’lim (B2–C1 CEFR darajalari)da esa akademik va kasbiy yo‘naltirilgan matnlarni tahlil qilish, tanqidiy baholash, muallifning ohangi va uslubini aniqlash, kontekstual va inferensial xulosalar chiqarish ko‘zda tutiladi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti o‘qish malakalarini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv, integrativ o‘qitish va amaliy vaziyatga mos topshiriqlar qo‘llashni tavsiya qiladi. Masalan, matndan asosiy g‘oyani topish (skimming), aniq ma’lumotni izlab topish (scanning), matn mazmunini qayta ifodalash va umumlashtirish, muallifning nuqtai nazarini baholash va o‘z fikrini asoslash kabi topshiriqlar taklif etiladi. Bu metodlar CEFR tavsifiy ko‘rsatkichlariga mos keladi, ammo milliy kontekstga moslashtirilgan bo‘lib, darsliklarda kundalik hayot va milliy madaniyatga oid materiallar keng qo‘llanadi.

IELTS Akademik o‘qish testi (Academic Reading) uchta matndan iborat bo‘lib, ularning umumiy hajmi 2150–2750 so‘z atrofida bo‘ladi. Matnlar ilmiy-ommabop, tahliliy va dalillovchi (argumentativ) uslubda yozilgan bo‘lib, ba’zan grafik, diagramma yoki illyustratsiyalar ham kiritiladi. Test davomiyligi 60 daqiqa, jami 40 ta savoldan iborat bo‘ladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun bitta ball beriladi. Umumiy ball yig‘indisi asosiy ko‘rsatkich sifatida olinadi va 1–9 oralig‘idagi band tizimiga o‘tkaziladi. IELTS Umumiy tayyorgarlik uchun o‘qish testi (General Training Reading) ham xuddi shunga o‘xshash formatga ega, biroq undagi matnlar kundalik hayotga oid reklamalar, e’lonlar, qo‘llanmalar va shunga o‘xshash materiallardan iborat bo‘ladi. IELTS Akademik o‘qish bo‘limidagi asosiy savol turlari quyidagilardan iborat: ko‘p variantli savollar (Multiple choice), To‘g‘ri/Noto‘g‘ri/Berilmagan (True/False/Not Given), Ha/Yo‘q/Berilmagan (Yes/No/Not Given) – muallif nuqtai nazariga mos, moslashtirish (Matching) – ma’lumot, sarlavha, belgilarni moslashtirish, gapni to‘ldirish yoki gap oxirini moslashtirish (Sentence completion / Matching sentence endings), xulosa, eslatma, jadval yoki sxemani to‘ldirish (Summary, note, table, flow-chart completion), diagrammadagi yozuvlarni to‘ldirish (Diagram label completion), qisqa javobli savollar (Short-answer questions). Har bir vazifa turi o‘ziga xos o‘qish strategiyalari va ko‘nikmalarini talab qiladi. Masalan, sarlavhani moslashtirish (heading-matching) tez ko‘z yugurtirish (skimming) uchun, To‘g‘ri/Noto‘g‘ri/Berilmagan topshiriqlari esa matndan xulosa chiqarish va nozik ma’no farqlarini aniqlash uchun samarali hisoblanadi.

IELTS tizimi o‘qish kompetensiyasini chuqur, keng ko‘lamli va aniq ko‘nikmalar orqali baholaydi. Test jarayonida matnning umumiy mazmunini anglash, muallifning niyatini aniqlash, asosiy va qo‘shimcha ma’nolarni tahlil qilish kabi strategiyalar mustahkam egallangan bo‘lishi lozim. Baholash mezonlari dastlabki javoblardan (xom natijalar) band tizimiga o‘tkazish imkonini beradi. Bu esa baholash jarayonida adolat va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlaydi. Chet tillarni bilishning Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) tizimi til ta’limi sohasidagi zamonaviy ehtiyojlar – mediatsiya, onlayn muloqot, plurilingual/plurikultural kompetensiya va imo-ishora tili (sign language) kabilarni o‘z ichiga olgan “illustrative descriptors” to‘plamini taklif qiladi. Chet tillarni bilishning Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) retseptiv (Reception) bo‘limida, ayniqsa, o‘qish bo‘yicha quyidagi funksional tasnif va yondashuvlar taqdim etiladi:

- **Retseptiv faoliyatlar (Reception Activities):** o‘qish samarasi sifatida umumiy o‘qish tushunchasi (Overall reading comprehension), yo‘nalish bo‘yicha o‘qish (Reading for orientation), ma’lumot va dalillarni izlab o‘qish (Reading for information and argument), yo‘riqnomalarni o‘qish (Reading instructions), hamda bo‘sh vaqt uchun o‘qish (Reading as a leisure activity) kabi maqsad va kontekstga mos faoliyat turlari belgilangan [6].
- **Retseptiv qilish strategiyalari (Reception strategies):** o‘qish jarayonida ishoralarni aniqlash va xulosa chiqarish (Identifying cues and inferring) kabi strategiyalar alohida qayd etiladi. Ya’ni, matndagi ishora va belgilarni anglash, ulardan mantiqiy xulosalar chiqarish kompetensiyasi ta’kidlanadi. Bu kabi deskriptorlar o‘qish jarayonini faollashtiradi va talabaning matnni faqat tushunib qolmasdan, balki undagi ohang, tuzilish va ma’no qatlamlarini ham ajrata olishiga yo‘naltiriladi.

Chet tillarni bilishning Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) til o‘qitishda quyidagi yangi tamoyillarni asosiy yondashuv sifatida taklif etadi:

- **Mediatsiya (Mediation):** bunda til o‘rganuvchi oddiy tarjimon emas, balki muloqot va ma’lumot almashuvini boshqaruvchi vositachi sifatida qaraladi. Vositalashtirish ikki yo‘nalishda – kognitiv vositalashtirish (Cognitive Mediation) va munosabatlarni vositalashtirish (Relational Mediation) ko‘rinishida yoritiladi.
- **Ko‘p tillilik va ko‘p madaniyatlilik kompetensiyasi (Plurilingual va Plurikultural competence):** talaba bir nechta til va madaniyat o‘rtasida ma’no yaratish va kommunikatsiyani boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.
- **Modallikka moslashtirilgan deskriptorlar (Modality-inclusive descriptors):** deskriptorlar og‘zaki, yozma va imo-ishora kabi barcha modalliklarga moslashtirilgan bo‘lib, bu inkluzivlik va teng huquqlilik tamoyilini ta’minlaydi. Chet tillarni bilishning Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) o‘qituvchilar uchun qulay bo‘lgan deskriptorlar, “qila olaman” jadvali (can-do list) va baholash yondashuvlari bilan ta’minlaydi. Mazkur yondashuvlarni amalda qo‘llash uchun RELANG loyihasi natijalari (xususan, til imtihonlarini CEFRga moslashtirish bo‘yicha) ham tavsiya etiladi.

Chet tillarni bilishning Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) til ta’limida ijtimoiy va kommunikativ ehtiyojlarni hisobga olgan yondashuvni taklif etadi. Ayniqsa, o‘qish bo‘yicha faollik, xulosa chiqarish, strategik tushunish va muloqotga asoslangan ishtirok etish kompetensiyalari nazarda tutilgan. Vositalashtirish, ko‘p tillilik hamda modallikka moslashtirilgan prinsiplar zamonaviy va inklyuziv til ta’limi modelini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval: **Xorij va O'zbekiston me'yoriy xujjatlarida o'qish kompetensiyasi bo'yicha qiyosiy tahlil**

| Asosiy mezonlar | O'zbekiston DTS (2022) | IELTS | CEFR |
|---|---|---|---|
| Maqsad | Bosqichma-bosqich o'quvchilarda CEFR darajalariga mos o'qish kompetensiyasini shakllantirish, milliy va global kontekstda tilga tayyorlash | Akademik yoki kundalik hayotdagi ingliz tilida murakkab matnlarni tez va aniq tushunish, xalqaro baholash | Turli kontekst va maqsadlarda matnni tushunish, muloqot va mediatsiyada foydalanish |
| Matn turi va hajmi | Boshlang'ichdan oliy ta'limgacha murakkablashuvchi turli janrdagi matnlar: badiiy, ilmiy-ommabop, rasmiy-ish; hajm bosqichga qarab oshadi | Academic: 2150–2750 so'zli 3 uzun matn (ilmiy, tahliliy, argumentativ); GT: qisqa va o'rta hajmli kundalik matnlar | Har bir daraja uchun maqsadga yo'naltirilgan matn turlari (orientation, information & argument, leisure reading, instructions) |
| Baholash mezoni | Davlat baholash tizimida CEFR descriptorlariga moslashtirilgan, lekin milliy kontekst asosiy | 40 savol → raw score → 1–9 band; har bir band descriptor asosida ta'riflangan | "Can-do" descriptorlar: har bir darajada talabaning aniq bajarishi mumkin bo'lgan o'qish faoliyatlari |
| Ko'nikmalar | Asosiy g'oya, tafsilot, xulosa chiqarish, matnni qayta ishlash, muallif pozitsiyasini aniqlash | Skimming, scanning, detallangan tushunish, inferensiya, writer's attitude | Overall comprehension, selective reading, inference, intertextual understanding, mediatsiya |
| Strategik yondashuv | Kommunikativ va integrativ metodlar; milliy madaniyatga oid matnlar integratsiyasi | Akademik strategiyalar: tez o'qish, ma'lumot qidirish, kontekstdan ma'no topish | Yangi strategiyalar: mediatsiya, plurilingual/plurikultural yondashuv, modality-inclusive descriptorlar |
| Darajalar | A1–C1 (bosqichma-bosqich) | Band 1–9 (yarim bandlar bilan) | Pre-A1–C2 |
| Zamonaviy elementlar | CEFRga moslashtirilgan, ammo mediatsiya va plurilingualism elementlari kamroq yoritilgan | Xalqaro standart, lekin mediatsiya yoki plurilingualism aniq baholashda aks etmaydi | Mediatsiya, plurilingualism, inkluzivlik, onlayn/raqamli matn o'qish kompetensiyasi |

Uch tizim ham o'qish kompetensiyasini til o'rgatish va baholashning asosiy komponenti sifatida belgilaydi. DTS, IELTS va CEFRda matnni tushunish faqat literal (so'zma-so'z) darajada emas, balki inferensiya, tahliliy va tanqidiy darajada ham baholanadi. Har uch tizim ham strategik yondashuvlarni (skimming, scanning, asosiy g'oyani ajratish) asosiy ko'nikma sifatida tan oladi. Shuningdek, o'qishning turli kontekst va maqsadlarga mos ravishda amalga oshirilishi uchala tizimda ham qayd etilgan. DTS milliy kontekstga moslashtirilgan bo'lib, unda o'quvchilarni milliy madaniyat, tarix va kundalik hayotga oid matnlar bilan ishlashga tayyorlash ko'zda tutiladi. IELTS esa butunlay xalqaro mezonlarga asoslangan va akademik hamda global kontekstli matnlar bilan ishlashni talab qiladi. CEFR Companion Volume esa eng keng qamrovli yondashuvga ega – unda nafaqat matnni tushunish, balki mediatsiya, plurilingualism, raqamli matnlar bilan ishlash, turli modalitydagi (og'zaki, yozma, sign) materiallarni tushunish ham ko'zda tutilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Uch tizim – O'zbekiston Respublikasi DTS, IELTS va CEFR – o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda o'ziga xos yondashuv va mezonlarga ega bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi bir xil bo'lib, til o'rganuvchini matnni chuqur, aniq va kontekstual tushunishga, olingan axborotni qayta ishlash va kommunikativ vaziyatda qo'llashga tayyorlashdan iboratdir. DTS milliy ehtiyojlarga mos ravishda bosqichma-bosqich rivojlantirish tizimini taklif qiladi va CEFR darajalariga tayangan holda o'qish kompetensiyasini shakllantiradi, IELTS esa xalqaro miqyosda tan olingan, qat'iy baholash mezonlari va band descriptorlariga ega bo'lib, akademik va kundalik ingliz tilidagi murakkab matnlarni tushunish qobiliyatini sinovdan o'tkazadi, CEFR esa zamonaviy til o'qitish paradigmasini ilgari surib, mediatsiya, plurilingualizm, inkluzivlik va raqamli matn bilan ishlash kabi yangi kompetensiyalarni qamrab oladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimida DTS va CEFR yondashuvlarini integratsiya qilish, IELTSning aniq baholash tizimi va akademik strategiyalarini metodik asos sifatida joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishi mumkin. Shu asosda, chet tillarni bilishning umumyevropa kompetensiyalari (CEFR)ning zamonaviy elementlarini DTSga integratsiya qilish, xususan, mediatsiya bo'yicha descriptorlarni mustahkamlash, plurilingual va plurikultural kompetensiyalarni rivojlantirish hamda raqamli matnlarni o'qish ko'nikmalarini qo'shish zarur.

IELTS baholash tizimidan foydalanish orqali band descriptorlar asosida topshiriqlarni baholash, savol turlari va test strategiyalarini DTSdagi baholash amaliyotiga qoʻshish hamda talabalarni skimming, scanning, inferensiya kabi akademik strategiyalarga oʻrgatish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, milliy va xalqaro kontekstni uygʻunlashtirish, darsliklarda mahalliy madaniyatga oid matnlar va xalqaro mavzular balansini taʼminlash, ilmiy-ommabop, badiiy, rasmiy-ish va mediatsiya talab qiluvchi kontentni qoʻshish, shuningdek, bosqichma-bosqich murakkablashtirish va darajaviy yondashuv asosida A1–A2 bosqichlarda qisqa va sodda matnlar bilan ishlash, B1–B2 bosqichlarda argument tahlili va muallif pozitsiyasini aniqlash, C1 bosqichda esa akademik va kasbiy matnlarni tanqidiy baholash hamda intertekstual bogʻlanishlarni ochib berish zarur. Talabalar uchun self-assessment grids asosida oʻz-oʻzini baholash imkoniyatlarini yaratish, oʻqituvchilarning baholash mezonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va shu orqali milliy hamda global talablarga javob beruvchi kompetensiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, Oʻzbekiston taʼlim tizimida milliy va xalqaro standartlar uygʻunligini taʼminlash, CEFRning zamonaviy kompetensiyalarini DTSga integratsiya qilish va IELTSning baholash uslublarini metodik asos sifatida qoʻllash nafaqat til koʻnikmalarini, balki tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot va raqamli savodxonlikni ham rivojlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 19-maydagi "Uzluksiz taʼlim tizimining chet tillar boʻyicha davlat taʼlim standartini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi qarori.
2. Jalolov J.J. Chet til oʻqitish metodikasi. Chet tillar oliy oʻquv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan va toʻldirilgan 2-nashr. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2012. – 432 b.
3. Saydaliev S.S. Chet til oʻqitish metodikasidan ocherklar. – Namangan: NamDU, 2000. – 210 b.
4. Soliyev U.Y. Talabalarning ingliz tilida oʻqish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (amaliy matematika yoʻnalishi misolida). Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Namangan, 2024. – B. 155.
5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education, 2007. – 216 b.
6. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2001. – P. 274.
7. IELTS Scores Guide. – Manchester, UK: British Council, 2014. – P. 95.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №8**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.